

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI XODIMLARINI IJTIMOY TA'MINLASH MASALALARI (1946-1970-yillar)

*Tishabayeva Iroda Rasulovna, Farg'ona davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy fanlar va sport" kafedrasida dotsenti*

ISSUES OF SOCIAL SECURITY OF PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM EMPLOYEES IN UZBEKISTAN (1946-1970)


*Tishabayeva Iroda Rasulovna, Associate Professor of the Department of
"Social Sciences and Sports" of Fergana State Technical University*

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАБОТНИКОВ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1946-1970 ГОДЫ)

Тишабаева Ирода Расуловна, доцент кафедры "Социальные науки и спорт" Ферганского государственного технического университета



<https://orcid.org/0009-0001-3081-8917>
e-mail:
tishabayevairodahon@gmail.com.



Annotatsiya: Ushbu maqola 1946-1970-yillar davomida O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatgan pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qiladi. Maqolada, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni, ularning ish haqi, ijtimoiy kafolatlar, moddiy ta'minot va mehnat sharoitlari tahlil etiladi. Shuningdek, arxiv hujjatlari, rasmiy qarorlar va statistik ma'lumotlarga asoslanib, o'sha davrdagi maktabgacha ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya, pedagog kadrlar, mehnat sharoitlari, moddiy ta'minot, ish haqi, davlat siyosati, tizim, bog'cha, lavozim.

Abstract: This article analyzes the socio-economic conditions of pedagogical and support staff working in preschool institutions of the Uzbekistan during the period 1946-1970. The study examines the process of training pedagogical personnel, their wages, social guarantees, material provision, and working conditions. Based on archival documents, official resolutions, and statistical data, the article reveals the socio-economic foundations of the preschool education system of that period, contributing to a deeper understanding of its historical development.

Keywords: preschool education, pedagogical staff, working conditions, material provision, wages, state policy, system, kindergarten, position.

Аннотация: В данной статье анализируется социально-экономическое положение педагогических и обслуживающих работников дошкольных учреждений Узбекистане в 1946-1970-е годы. В статье рассматриваются процессы подготовки педагогических кадров, уровень их заработной платы, система социальных гарантий, материальное обеспечение и условия труда. Также на основе архивных документов, официальных постановлений и статистических данных раскрываются социально-экономические основы функционирования системы дошкольного воспитания в указанный период, что позволяет глубже осмыслить особенности ее развития.

Ключевые слова: дошкольное воспитание, педагогические кадры, условия труда, материальное обеспечение, заработная плата, государственная политика, система, детский сад, должность.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida bolalarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi, maktabgacha ta'lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim bo'g'in ekanini ta'kidlab, bu sohada faoliyat yuritayotgan pedagog va xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zarurligini qayd etgan[10].

Maqolada urushdan keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta'minlash masalalari, ularning ish haqi, moddiy rag'batlantirish, mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Ushbu tadqiqot orqali sovet davridagi davlat siyosatining mazkur soha xodimlari hayotiga ta'siri ochib berilib, bugungi islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi.

Mazkur tadqiqotda tarix faniga xos bo'lgan an'anaviy va zamonaviy ilmiy metodlar majmui qo'llanildi. Jumladan, tarixiylik va xronologik metodlar asosida 1946–1970-yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta'minlash jarayoni davrlar kesimida tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli tahlil metodi orqali maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining ijtimoiy ta'minoti davlat boshqaruvi, moliyalashtirish mexanizmlari va normativ-huquqiy hujjatlar bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta'minlash masalalari tarixshunoslikda to'liq va kompleks tarzda o'rganilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo'yicha mavjud tadqiqotlar asosan umumiy pedagogika tarixi, ta'lim tizimini rivojlantirish yoki qishloq va shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag'ishlangan ishlar doirasida yoritilgan bo'lib, maktabgacha tarbiya muassasalari pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining

ijtimoiy ta'minoti masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam uchraydi.

Sovet davrida yaratilgan umumiy pedagogika tarixiga oid asarlarda, jumladan M.F.Shabayeva tahriri ostida nashr etilgan "История педагогики" asarida ta'lim tizimining tashkiliy asoslari va pedagog kadrlar tayyorlash masalalari yoritilgan bo'lsa-da, unda maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining ish haqi, moddiy ta'minoti va ijtimoiy kafolatlari muammolari ikkilamchi jihat sifatida ko'rib chiqilgan[2].

Mustaqillik arafasida va undan keyingi yillarda yaratilgan ayrim ilmiy tadqiqotlarda sovet davrida O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ayrim jihatlari yoritilgan. Jumladan, M. Xadjievaning qishloq ijtimoiy rivojiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida ijtimoiy soha xodimlarining umumiy mehnat sharoitlari va moddiy ta'minoti masalalariga to'xtalib o'tiladi[1]. Biroq ushbu tadqiqotda ham maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy ta'minoti mustaqil va alohida tadqiqot predmeti sifatida keng tahlil qilinmagan.

Shu bilan birga, mavzuni chuqur va aniq yoritishda arxiv hujjatlari asosiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Farg'ona, Andijon va Namangan viloyat davlat arxivlari hamda O'zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi hujjatlar (buyruqlar, hisobotlar, shtat jadvallari, ish haqi ro'yxatlari) maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini hududlar kesimida tahlil qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 1946–1970-yillarda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta'minlash masalalari tarixshunoslikda yetarli darajada tizimli va kompleks o'rganilmagan.

Natijalar. 1946–1970-yillar oralig'ida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining ijtimoiy hayoti mamlakatning umumiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechgan. Urushdan keyingi yillarda mamlakatda xalq xo'jaligini tiklash bilan bir qatorda ta'lim va tarbiya

tizimining barcha bo'g'inlarida kadrlar masalasi dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqqan.

Urushdan keyingi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalari ishchi va pedagog xodimlariga SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 3-iyundagi 1270-son "Bolalar bog'chalari ishchilarining ish haqini oshirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ish haqi to'langan. Arxiv fondlarida Farg'ona shahridagi maktabgacha ta'lim muassasasining 1945-yil 1-yanvardagi tarifikatsiyasida ish haqlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud: mudira – 44,0 so'm, vrach – 72,5 so'm, hamshira – 31,0 so'm, katta tarbiyachi – 27,5 so'm, tarbiyachi – 22,5 so'm oylik ish haqi olgan[3.2].

1946-yilda maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida muhim choralar belgilandi. Xususan, 1946-yil 23-oktabrda SSSR Moliya ministrligi va – Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy ittifoqining "Ratsion narxlarning ko'tarilishi munosabati bilan o'qituvchilar va ta'lim muassasalari boshqa xodimlari, bolalar bog'chalarining tarbiyachilari va tibbiyot xodimlarining ish haqlarini oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi qabul qilingan. Unga ko'ra, bog'cha tarbiyachisiga bir kunda 6 soatlik me'yor bo'yicha ish haqi to'lanishi belgilab qo'yildi[4.24]. Shu bilan birga, umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi alohida rejimli ayrim guruhlarda bevosita ishlovchi mudirlar, tarbiyachilar, tarbiyachi-metodistlar, musiqa rahbarlari, logopedlar va boshqa pedagog xodimlarning ish haqi stavkalari (mansab okladlari) 25 foizga oshirildi[5.3]. Bu qaror pedagogik kadrlarning ijtimoiy maqomini mustahkamlash, ularning mehnatini rag'batlantirish hamda maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi.

Kolxozlarda ochilgan bolalar bog'chalarida bolalar sonidan qat'i nazar mudira bilan birgalikda 2-3 kishi faoliyat yuritgan xolos. Xususan, 1948-yilda Namangan oblasti Yangiqurg'on rayoni Voroshilov kolxozi bolalar bog'chasida 19 nafar tarbiyalanuvchilar bo'lib, jami 3 nafar xodim, Telman kolxozi bog'chasida 56 nafar tarbiyalanuvchilar qatnagan bo'lib, ularda ham 3

nafar xodim faoliyat yuritgan. Kommuna kolxozida 40 nafar bolalarga 2 nafar xodim qaragan[6.6].

1949-yilda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni e'lon qilinib, kam va o'rtacha maosh oluvchi yolg'iz onalar uchun bolalar bog'chalari to'lovining 50 foizga qisqartirilishi maktabgacha tarbiya bilan qamrovni oshirishga xizmat qildi. 1956-yilda qabul qilingan navbatdagi hukumat qarori esa ayollarning mehnat staji va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratildi, jumladan, homiladorlik ta'tilidan keyin ular uchun qo'shimcha ta'til berish, yangi tug'ilgan bola bilan bir yil ichida ishga qaytgan taqdirda mehnat stajining saqlanishi kafolatlandi [2.332].

Erkaklar, ayrim hollarda, musiqa rahbari, qorovul va o't yoquvchi vazifalarida ishlagan. Kamdan-kam hollarda enaga vazifasida ham ishlagan. Xususan, Namangan oblasti arxivida saqlanayotgan hujjatlarda 1952-1954-yillarda Namangan shahar 20-sonli bolalar bog'chasining ish haqi tabelida Tojiboev T. enaga vazifasida ishlab, 210 rubl maosh olganligi haqida ma'lumotlar bor[7.6].

Sovet davrida mehnat qonunchiligi rasmiy jihatdan barcha soha xodimlari uchun teng huquq va kafolatlarni nazarda tutgan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu normalarning buzilishi holatlari ham tez-tez uchrab turgan. Ayniqsa, ta'lim tizimida, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat yurituvchi ayol xodimlar o'z mehnat huquqlarining poymol etilishi bilan bog'liq muammolarga duch kelganlar. Hususan, 1957-yilda Namangan oblast Xalq ta'limi bo'shqarmasi tasarrufidagi bolalar bog'chasi mudirasi Tillaeva o'zining homiladorlik davrida nohaq tarzda ishdan bo'shatilganini bildirgan hamda mehnat huquqlarining tiklanishida yordam so'rab tegishli tashkilotlarga murojaat qilgan [8.46].

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1958-yil 6-martdagi 138-son "Bolalar bog'chasining tipovoy shtatlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bog'chalarda faoliyat olib boruvchi ishchi va pedagog xodimlar shtatlar jadvali tasdiqlangan hamda tegishli ish haqi belgilangan. Bu qarorda, 9 soat va 12 soat faoliyat olib boruvchi bog'chalarning namunaviy shtatlari alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, 9 soatli 1ta guruhi bor bog'chalar uchun mudira, tarbiyachi, enaga va oshpaz lavozimlari berilgan[9.60].

1966-yil 29-aprelda SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Mehnat va ish haqi masalalari bo'yicha davlat qo'mitasi hamda Birlashgan kasaba uyushmalari markaziy kengashi (БЦСПС) Prezidiumining 260-11-14-sonli qarori qabul qilindi[5.3]. Mazkur qaror sovet ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlarini tartibga solish va ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi.

1970-yilda respublikaning bir necha kolxoz bog'chalarida tarbiyachilarning ish kuni 8-10 soatni tashkil etishi belgilangan. Dalalarda ish ko'paygan paytlarda ular 11 soatgacha ishlashga majbur bo'lgan, biroq ish haqi esa 8 soatlik me'yor asosida to'langan. Maxsus ma'lumotga ega bo'lgan tarbiyachilarning oylik maoshi 80-100 so'm o'rniga 60 so'mni tashkil etgan[1.148].

Xulosa. 1946–1970-yillar mobaynida O'zbekistonda maktabgacha tarbiya tizimi xodimlarining ijtimoiy hayoti murakkab, qarama-qarshi jarayonlar bilan kechgan. Ayollar bandligining ortishi, bolalar bog'chalarining ko'payishi ijobiy holat bo'lsa-da, moddiy ta'minot, mehnat sharoiti va kadrlar siyosatidagi muammolar uzoq yillar davomida tizimning asosiy zaif nuqtasi bo'lib qolgan.

Ushbu davrda bolalar bog'chalari va yaslilardagi shtat birliklari sobiq Ittifoq miqyosida yagona andoza asosida belgilangan bo'lib, bu tizim O'zbekiston SSRda ham umumittifoq me'yorlariga muvofiq tarzda joriy etilgan. Shu boisdan maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining lavozimlari, ish hajmi va mehnat taqsimoti bir xil tartibda belgilansa-da, ish haqi miqdorida sezilarli farqlar mavjud bo'lgan.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining oylik maoshi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida mehnat qiluvchi ishchi-xodimlarning daromadidan past bo'lib qolgan. Davlat tomonidan ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida ayrim yillarda uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy yordam berish va moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rishga urinishlar bo'lgan, biroq bu chora-tadbirlar tizimli xarakter kasb etmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хаджиева М. Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы. Дисс. на соиск. уч. степ. докт. ист. наук. – Ташкент, 1992. – С. 148.
2. История педагогики. Под редакцией М.Ф.Шабоевой. – Москва: Просвещение, 1981. – С.332.
3. Farg'ona VDA, 604-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 2-varaq.
4. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 28-ish, 24-varaq.
5. Maorif xodimlarining ish haqlariga doir savol-javoblar. /O'qituvchilar gazetasi. 1976-yil, 5-yanvar, 3-bet.
6. Namangan VDA, 266-fond, 1-ro'yxat, 210-ish, 8-varaq.
7. Namangan VDA, 12-fond, 1-ro'yxat, 376-ish, 6-varaq.
8. Namangan VDA, 175-fond, 1-ro'yxat, 119-ish, 46-varaq.
9. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 7219-ish, 60-varaq.
10. <https://president.uz/oz/lists/view/8471>.

